



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel-may.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	147
Iskandarov Quddrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi	
IQTISODIY ATAMALARINING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	154
Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna, Salamova Oliya	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	158
Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li	
RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....	164
Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR.....	170
Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyeovich	
ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA.....	175
Axmedov Xasan Ruzibayevich, Ruzibayeva Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	



ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA

Axmedov Xasan Ruzibayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
PhD, professor

Ruzibayeva Karima Shavkat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” fakulteti talabasi
ORCID: 0009-0001-2899-4081

Abdumalikova Busalima Abduvali qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Menejment” fakulteti talabasi
ORCID: 0009-0007-4254-1824

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki audit tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Xususan, ushbu faoliyatni rivojlantirishda xalqaro standartlarning ahamiyati yoritilgan hamda “Institute of Internal Auditors” tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarning o'rnini alohida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ichki audit tizimi samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan hamda xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, ichki auditning tashkilotlar faoliyatidagi ahamiyati, risklarni boshqarishdagi roli hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirishdagi funksiyalari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda ichki audit tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur ilmiy izlanish davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ichki audit, xalqaro audit standartlari, moliyaviy nazorat, audit samaradorligi, shaffoflik, xorijiy tajriba, audit tizimi, korporativ boshqaruv, ichki nazorat tizimi.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of improving the internal audit system. In particular, it highlights the importance of international standards in the development of internal audit activities and emphasizes the role of regulatory documents developed by the Institute of Internal Auditors. The article also examines ways to enhance the effectiveness of the internal audit system based on the experience of the United States, the United Kingdom, and other developed countries, and provides recommendations for adapting foreign practices to the conditions of Uzbekistan. Furthermore, the study reveals the significance of internal auditing in organizational activities, its role in risk management, and its functions in strengthening financial control. Based on the findings of the research, practical recommendations have been developed for further improving the internal audit system in Uzbekistan. This scientific study contributes to increasing transparency in public administration, strengthening financial discipline, and ensuring the efficient use of resources.

Key words: internal audit, international auditing standards, financial control, audit effectiveness, transparency, foreign experience, auditing system, corporate governance, internal control system.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты совершенствования системы внутреннего аудита. В частности, особое внимание уделено значению международных стандартов в развитии данной деятельности, а также нормативным документам, разработанным Институтом внутренних аудиторских (Institute of Internal Auditors). Кроме того, рассмотрены пути повышения эффективности системы внутреннего аудита на основе опыта США, Великобритании и других развитых стран, а также разработаны



предложения и рекомендации по адаптации зарубежного опыта к условиям Узбекистана. Вместе с тем раскрыты значение внутреннего аудита в деятельности организаций, его роль в управлении рисками и функции по усилению финансового контроля. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по дальнейшему совершенствованию системы внутреннего аудита в Узбекистане. Данное научное исследование способствует расширению возможностей обеспечения прозрачности государственного управления, укреплению финансовой дисциплины и эффективному использованию ресурсов.

Ключевые слова: внутренний аудит, международные стандарты аудита, финансовый контроль, эффективность аудита, прозрачность, зарубежный опыт, аудиторская система, корпоративное управление, система внутреннего контроля.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarning tobora murakkablashib borishi tashkilotlarda samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yishni muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda. Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish hamda moliyaviy nazorat tizimining shaffofligini ta'minlash har bir davlatning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ichki audit tizimini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ichki audit xizmatlarining huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3231-son qaror bilan vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari tashkil etildi [1]. Keyinchalik, 2021-yil 27-avgustdagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6300-son Farmoni [2] hamda 2022-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-128-son qarori [3] bilan ichki audit xizmatlarining huquqiy maqomi yanada mustahkamlandi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 416-son qarori [4] ichki audit xizmatlarining huquqiy maqomi, vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilab berdi.

Biroq amaldagi normativ-huquqiy baza ichki audit xizmatlarining samarali faoliyat yuritishi uchun hali to'liq yetarli emas. Xususan, ularning huquqiy maqomini yanada aniq belgilash, vakolatlarini kengaytirish hamda institutsional mustaqilligini kuchaytirish zarurati mavjud.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida ichki audit tizimi uzoq yillar davomida shakllanib, izchil takomillashtirib borilgan. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqa davlatlar tajribasi audit faoliyatini mustaqil, tizimli va strategik yondashuv asosida tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Ushbu tajribalar byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini yanada optimallashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish, ochiqlikni ta'minlash hamda korrupsiyaning oldini olish yo'nalishlarida ichki audit faoliyati bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud tizimni yanada kuchaytirish va ilg'or xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolada ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribaning ahamiyati yoritilib, ularni O'zbekiston sharoitida samarali qo'llash masalalari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit tizimi zamonaviy korporativ boshqaruv hamda davlat moliyaviy nazorati tizimida muhim o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ichki auditning nazariy asoslari, funksiyalari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan.

Xususan, xalqaro tadqiqotchilar Cohen A. va Sayag G. (2010) o'z tadqiqotlarida ichki auditning korporativ boshqaruvdagi o'рни hamda uning samaradorligini oshirish omillarini tahlil qilganlar. Mualliflar ichki audit xizmatining mustaqilligi, rahbariyat bilan samarali hamkorligi va malakali auditorlar mavjudligi audit tizimi samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar.

Sarens G. va De Beelde I. (2006) tomonidan chop etilgan "The Relationship Between Internal Audit and Management: A Review of the Literature" nomli maqolada esa ichki audit va boshqaruv o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ichki auditning tashkilot boshqaruvidagi strategik ahamiyati ochib berilib, uning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.



KPMG xalqaro konsalting kompaniyasining 2018-yilda e'lon qilingan "The Future of Internal Audit: A Global Perspective" hisobotida ichki audit sohasidagi global tendensiyalar, raqamli texnologiyalar ta'siri hamda turli davlatlarda qo'llanilayotgan ilg'or amaliyotlar tahlil qilingan. Hisobotda ichki audit tizimini zamonaviy boshqaruv mexanizmlariga integratsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

Xalqaro ilmiy va amaliy yondashuvlarda ichki audit tizimining metodologik asoslari asosan "Institute of Internal Auditors" (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarga tayanadi. Mazkur standartlar ichki audit faoliyatining mustaqilligi, xolisligi, kasbiy etikasi hamda sifatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, dunyoning ko'plab davlatlarida audit tizimlarini shakllantirishda asosiy metodologik manba sifatida qo'llaniladi.

O'zbekistonda ham ichki audit va moliyaviy nazorat sohasida qator tadqiqotchilar va mutaxassislar ilmiy-amaliy faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Shuhrat Shodmonov, Dilshodbek Abdullayev, Gulnora Xamrayeva va Azizbek Murodov kabi mutaxassislar tashkilotlarda ichki nazorat tizimlarini baholash va takomillashtirish masalalarini tadqiq etib kelmoqdalar. Ularning ilmiy ishlari moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash, risklarni boshqarish hamda tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Ichki Auditorlar Assotsiatsiyasi ham ichki audit tizimini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur tashkilot ichki auditorlarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, malaka oshirish dasturlarini tashkil etish hamda xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish bo'yicha faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, Moliya vazirligi, davlat organlari hamda xususiy konsalting kompaniyalari qonunchilik bazasini takomillashtirish, audit standartlarini ishlab chiqish va nazorat mexanizmlarini mustahkamlash orqali ichki audit tizimini rivojlantirishga munosib hissa qo'shmoqda.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu tajribalarni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish hamda amaliyotga samarali tatbiq etish bo'yicha qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribaning o'rni hamda ularni milliy amaliyotga tatbiq etish masalalarini o'rganish uchun bir qator ilmiy yondashuv va usullardan foydalanildi.

Ichki audit tizimi bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlar jahon ilmiy adabiyotlarida keng yoritilgan. Xususan, M. Spikin (2013) ichki auditning tashkilotdagi risklarni boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishdagi o'rni haqida fikr bildiradi. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy ichki audit tizimi nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki tashkilot faoliyatini kompleks baholovchi boshqaruv mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Amerika Ichki Auditorlar Instituti (Institute of Internal Auditors — IIA) tomonidan ishlab chiqilgan Ichki auditning xalqaro standartlari ko'plab davlatlar, jumladan AQSh va Kanada audit tizimining metodologik asosini tashkil etadi. Mazkur standartlar auditorning mustaqilligi, xolisligi, risklarga asoslangan yondashuv hamda axborotning ishonchligini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosiy metodologik yo'nalish sifatida qo'llanilib, ichki audit tizimi yaxlit boshqaruv mexanizmi sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, mantiqiy tahlil usuli orqali ichki auditning asosiy tamoyillari, vazifalari va funksiyalari o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya amaliyoti o'zaro solishtirildi hamda ularning ichki audit tizimini tashkil etishdagi o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, umumlashtirish va sintez usullaridan foydalangan holda xalqaro standartlar, jumladan "Institute of Internal Auditors" tomonidan belgilangan me'yoriy talablar tizimlashtirildi va ularning amaliy ahamiyati yoritildi.

Tadqiqotning axborot bazasi sifatida ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ochiq statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda global miqyosda kechayotgan integratsion jarayonlar, iqtisodiyotning tobora globallasuvi hamda innovatsion taraqqiyot sur'atlarining ortib borayotgani har qanday boshqaruv tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ichki audit tizimini rivojlantirish ham davlat boshqaruvi va korporativ boshqaruvning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ichki audit tizimi so'nggi yillarda izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, 2022–2024-yillar davomida audit tekshiruvlari sonining bosqichma-bosqich ortishi ichki nazorat tizimining qamrovi kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aniqlanayotgan moliyaviy kamchilik va xatolar sonining ortishi moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini anglatadi.



Ko'plab davlatlarda ichki audit faoliyatini tashkil etishda xalqaro auditorlik tashkilotlari, jumladan Ichki Auditorlar Instituti (IIA), Yevropa Ichki Audit Institutlari Konfederatsiyasi (ECIIA) hamda Oliy Audit Tashkilotlari Xalqaro Tashkiloti (INTOSAI) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlardan keng foydalaniladi. Mazkur yondashuvlar majburiy huquqiy hujjat maqomiga ega bo'lmasa-da, davlat sektori auditi uchun universal va moslashuvchan metodologik asos sifatida amaliyotda samarali qo'llanilmoqda.

Xususan, AQShda ichki audit tizimi yuqori darajada shakllangan bo'lib, audit faoliyatining mustaqilligi, risklarga asoslangan yondashuv va strategik boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur tajriba ichki audit tizimini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish joizki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi axborot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, Jahon bankining Davlat moliyasini boshqarish bo'yicha xalqaro hamkorlik ta'lim dasturi — PEMPAL (Public Expenditure Management Peer Assisted Learning) tomonidan O'zbekistonda davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit tizimini tashkil etish hamda rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar "muvaqqiyatli amaliyot" sifatida e'tirof etildi. Respublikada ichki audit faoliyatiga xalqaro standartlar, sertifikatlash va baholash kabi zamonaviy mexanizmlarning joriy etilishi natijasida mamlakatimizning ushbu yo'nalishdagi tajribasi xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholandi.

PEMPAL tashkiloti 2006-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda Yevropa va Markaziy Osiyodagi 23 ta mamlakat uchun davlat moliyasini boshqarish va ichki audit sohasida bilim hamda tajriba almashish platformasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Tashkilot o'z faoliyatini byudjet, g'aznachilik va ichki audit yo'nalishlari bo'yicha shakllantirilgan alohida professional hamjamiyatlar orqali amalga oshiradi [5].

Shuningdek, PEMPAL tomonidan joriy yilning 25–27-mart kunlari Avstriyaning Vena shahrida "Davlat moliyasini boshqarishning kelajagi: strategik muvofiqlik va innovatsion yechimlar" mavzusida tashkil etilgan umumiy yalpi yig'ilishda ham O'zbekiston tajribasi ijobiy baholandi. Mazkur e'tirof mamlakatimizda ichki audit tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi hamda kelgusida ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalarni yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Asosiy ichki auditni tashkil etishning ilg'or xorijiy modellari [6]

Davlat	Qo'llaniladigan model	O'ziga xos xususiyati	Indeks
AQSH	Sox (Sarbanes-Oxley) akti	Ichki nazorat tizimi ustidan qat'iy korporativ javobgarlik va shaffoflik.	88%
Buyuk Britaniya	Corporate Governance Code	"Bajar yoki tushuntir" (Comply or Explain) prinsipi asosida audit sifati.	82%
Germaniya	Ikki pog'onali boshqaruv	Kuzatuv kengashi va Ijroiya kengashi o'rtasidagi audit nazoratining aniq taqsimlanishi.	85%
Janubiy Koreya	IT-audit va raqamlashtirish	Audit jarayonlarining 90%+ sun'iy intellekt va Big Data orqali amalga oshirilishi.	95%

Ushbu 1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ilg'or xorijiy tajriba asosida rivojlangan davlatlarda ichki audit tizimi nafaqat nazorat funksiyasini bajaradi, balki har bir mamlakatning iqtisodiy modeli va korporativ boshqaruv madaniyatiga mos ravishda shakllantirilgan kompleks boshqaruv mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Bugungi globallashtirilgan iqtisodiyot sharoitida ichki audit tizimini samarali tashkil etish har qanday tashkilot uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tahlilda AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari asosida xalqaro ilg'or modellar qiyosiy jihatdan o'rganildi. Har bir davlat o'zining huquqiy muhiti, korporativ boshqaruv an'analari hamda texnologik rivojlanish darajasiga mos ichki audit tizimini shakllantirgan.


Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreya ichki audit tizimida raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etgani sababli eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichiga erishgan. AQSh modeli esa kuchli qonunchilik mexanizmlari, xususan, Sarbanes–Oxley Act (SOX) talablari orqali korporativ mas'uliyat va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda xalqaro etalon sifatida e'tirof etiladi.

Buyuk Britaniya tajribasida ichki audit tizimi risklarni boshqarish va korporativ boshqaruv bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilgan bo'lsa, Germaniya modelida audit faoliyati intizomli boshqaruv va yuqori darajadagi ichki nazorat tizimi bilan ajralib turadi.

Mazkur tahlil ichki audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro tajribalarni o'rganish O'zbekistonda ichki audit tizimini transformatsiya qilishda nafaqat xalqaro standartlarni joriy etish, balki audit faoliyatini raqamlashtirish, auditorlarning institutsional mustaqilligini kuchaytirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurligini asoslab beradi (1-rasm).



1-chizma. Ichki audit sohasidagi mutaxassislar soni dinamikasi (2010-2025)



1-rasm. Ichki audit sohasidagi a'zolari va sertifikatlangan mutaxassislar dinamikasi (2010-2025)[7]


Mazkur rasmda 2010–2025-yillar davomida ichki audit sohasi bo'yicha a'zolar umumiy soni hamda CIA (Certified Internal Auditor) sertifikatiga ega mutaxassislar sonining o'sish dinamikasi aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, har ikkala ko'rsatkichda ham barqaror o'sish tendensiyasi kuzatiladi.

Xususan, ichki auditorlar soni 2010-yildagi 160 ming nafardan 2025-yilga kelib 270 ming nafarga yetgan bo'lib, bu qariyb 68,75 foizlik o'sishni tashkil etadi. Shuningdek, CIA sertifikatiga ega mutaxassislar soni ham 55 ming nafardan 180 ming nafargacha oshganligi kuzatiladi. Bu esa ichki audit sohasida professional malaka va xalqaro sertifikatlash tizimiga bo'lgan talabning tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur holat ichki audit tizimining global miqyosda izchil rivojlanayotganini hamda xalqaro standartlar asosida faoliyat yurituvchi mutaxassislar soni ortib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, CIA sertifikatiga ega auditorlar ulushining tez sur'atlarda ko'payishi sohada kasbiy kompetensiya, malaka va xalqaro talablarga muvofiqlik darajasi oshib borayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, kuzatilayotgan ushbu dinamik o'sish ichki audit institutining institutsional jihatdan mustahkamlanib borayotganini hamda uning iqtisodiy boshqaruv tizimidagi strategik ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi (2-rasm).

4-chizma. Ichki audit funksiyalarining yillar bo'yicha o'zgarishi (%)



2-rasm. IchkiAudit funksiyalarining evolyutsiyasi (2015-2025)[8]



Quyidagi to'plangan ustunli diagrammada ichki audit funksiyalarining so'nggi o'n yil davomidagi o'zgarish tendensiyasi aks ettirilgan. Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy moliyaviy audit ulushi bosqichma-bosqich kamayib bormoqda, aksincha IT-audit hamda maslahat (advisory) xizmatlarining ulushi sezilarli darajada ortgan. Mazkur holat ichki auditorning faqat nazorat funksiyasini bajaruvchi subyektdan strategik boshqaruv hamkoriga aylanib borayotganini anglatadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar, jumladan IIA IPPF (International Professional Practices Framework), COSO va SOX standartlari muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Yetakchi davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, an'anaviy moliyaviy audit modelidan risklarga asoslangan, texnologik integratsiyalashgan va strategik yo'naltirilgan audit modeliga o'tish nafaqat tashkilot faoliyati samaradorligini oshiradi, balki korporativ boshqaruv sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

O'zbekiston uchun 2025–2030-yillar davomida ichki audit tizimini rivojlantirish bo'yicha qator strategik maqsadlar belgilangan. Jumladan, IIA IPPF standartlarini to'liq joriy etish, 500 nafardan ortiq sertifikatlangan ichki auditorlarni tayyorlash hamda davlat korxonalarining kamida 80 foizini risklarga asoslangan audit tizimiga o'tkazish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Kelgusidagi tadqiqotlarda O'zbekiston amaliyotida ichki audit sifati bilan moliyaviy natijadorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi empirik bog'liqlikni chuqur o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimi byudjet tashkilotlarida moliyaviy intizomni mustahkamlash, mablag'larning oqilona va samarali sarflanishini ta'minlashda muhim boshqaruv vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan AQSh, Germaniya, Xitoy va boshqa mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, samarali tashkil etilgan ichki audit tizimi mavjud bo'lgan sharoitda korrupsion xavflar kamayadi, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi hamda hisobotlilik darajasi yuksaladi.

O'zbekiston tajribasi ham ichki audit tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, amaldagi tizimni xalqaro standartlar darajasiga to'liq moslashtirish uchun ayrim yo'nalishlarda qo'shimcha islohotlarni amalga oshirish zarurati mavjud.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Ichki audit xizmatining institutsional mustaqilligini mustahkamlash — ichki audit xizmati faoliyati to'liq mustaqil, xolis va tashqi bosimlardan holi tarzda tashkil etilishi zarur.
2. Auditorlar malakasini oshirish va xalqaro sertifikatli tizimini keng joriy etish — IIA, INTOSAI va boshqa xalqaro standartlar asosida muntazam o'quv-seminarlar, malaka oshirish dasturlari hamda professional sertifikatlash tizimlarini rivojlantirish lozim.
3. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish — audit jarayonlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt, "big data" va zamonaviy analitik texnologiyalarni joriy etish orqali audit samaradorligini oshirish zarur.
4. Audit natijalari ijrosi ustidan monitoring tizimini kuchaytirish — aniqlangan kamchiliklar va tavsiyalar yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi hamda ularning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borilishi muhim hisoblanadi.
5. Risklarga asoslangan audit yondashuvini joriy etish — ichki auditni rejalashtirish jarayonida resurslarni yuqori xavf darajasiga ega yo'nalishlarga yo'naltirish orqali nazorat samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu takliflarni bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish orqali O'zbekistonda byudjet tashkilotlari faoliyatida ichki audit tizimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish hamda davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish ustidan shaffof va samarali boshqaruvni ta'minlash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2017-yildagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3231-sonli Qarori, <https://lex.uz/ru/docs/-3323258>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.08.2021-yildagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6300-sonli Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-5607471>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2023-yildagi "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-128-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-6438903>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2022-yildagi "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 416-sonli qarori, <https://lex.uz/en/docs/-6136910>
5. PEMPAL Success Stories. Uzbekistan: Shaping the Future of Internal Audit. PEMPAL rasmiy materiallari.



6. Institute of Internal Auditors (IIA). Annual Report 2010–2024. 2025-yil bo'yicha prognoz muallif tomonidan shakllantirilgan.
7. Institute of Internal Auditors (IIA). Global Internal Audit Survey (2015–2024). 2025-yil bo'yicha prognoz muallif tomonidan shakllantirilgan.
8. Enofe A.O., Mgbame C.J., Osa-Erhabor V.E., Ehiorobo A.J. (2013). "The Role of Internal Audit in Effective Management in Public Sector". Research Journal of Finance and Accounting.
9. Spikin M. (2013). Internal Audit: Theory and Practice. London: Palgrave Macmillan.
10. Egamberdiyevich D.M., Jahongir Qo'shmurod o'g'li H. (2025). "Turizm sohasidagi texnologiyalarning o'rni". Yangi O'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnal, 2(1), 256–257.
11. Mullabayev A.A. Byudjet tashkilotlarida ichki auditni takomillashtirish. Ilmiy maqola.
12. Said Fazilov S.Sh. O'zbekiston ichki audit xizmatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va ilg'or tajribalar. Ilmiy maqola.
13. Raxmatullayev S.A., Ibragimov G.G. Vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash mezonlari. Ilmiy maqola.
14. Shanasirova N. Ichki audit xizmatini tashkil etish va amalga oshirish. Ilmiy maqola.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>